

# TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

## TALABALAR BILAN MUSTAQIL ISHLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Sh.A.Kadirova

*Nizomiy nomidagi*

*TDPU o'qit*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada o'quvchilarning darsliklar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning bilim olish va anglash faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish, shuningdek olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olishga o'rgatish kabi masalalar yoritilgan. Hamda o'quvchilarni darslik bilan mustaqil ishlashga qanday mashg'ulot turlari kirishi qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashlari haqida ham ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *darslik, pedagogik texnologiyalar, biologiya fanini o'qitish, darslik tahliliy tanqidiy fikrlash, tahlil qilish.*

**Аннотация:** В данной статье освещены вопросы использования учебника в процессе урока, во внеурочных и внеклассных работах. Также приведены сведения о использовании учебника и дополнительной литературы.

**Annotation:** *In this article some issues were illustrated as pupils independent work with textbook, their self-independence during educational and underston process, so putting into practice their theoretical knowledge. Furthermore, several activities of independent work was given by auther.*

**Key words:** *textbook, pedagogical technologies, to teach subject biology, critical analytical thinking, analyse.*

Ta'lif sohasini tubdan isloq qilish, malakali kadrlarni tayyorlash borasida o'ziga xos samarali modelni mujassamlashtirgan "Ta'lif to'g'risidagi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining qabul qilinishi va amaliyotga joriy etilishi yangi tahrirdagi o'quv dasturlari, modernizatsiya qilingan DTS, darsliklarning yangi avlodini yaratish zaruriyatini keltirib chiqardi. Ta'lif sohasida so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan amaliy harakatlar sirasida o'quv darsliklarining yangi avlodini yaratish yo'lida olib borilayotgan faoliyatni qo'llab quvvatlash va rag'batlantirib borish yetakchi o'rinn tutadi. Shu bilan birgalikda o'quvchilarda

## TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

darslik bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Talim jarayonida o'quvchining mustaqil bilim olish va anglash faoliyatini shakllantirishda birinchidan, o'quvchilaming bilim olish va anglash faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish uchun ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish, ikkinchidan olgan bilimlarini o'quv va amaliyotda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish kerak. Jamiyatimizning zamonaviy maktablarga bo'lgan talabi ilmiy, ijtimoiy, ishlab chiqarishga oid masalani ijodiy hal eta oladigan, tanqidiy fikrlaydigan, o'z nuqtai nazarini va fikrini himoya qila oladigan, mustaqil o'rghanish yo'li bilan o'z bilimini sistemali ravishda to'xtovsiz to'ldirib va yangilab mahoratini oshirib boradigan hamda ulami hayotda qo'llay oladigan shaxsni kamol toptirishdan iborat. O'qituvchi o'quvchilarga bilim olish usullarini, yo'l-yo'riqlarini ko'rsatuvchi yo'lchi yulduz bo'lishi kerak, bu esa o'quvchilarining aqliy mehnatini ilmiy tashki etish, yani o'z oldiga kerakli maqsadni qo'ya olish, maqsadga erishish yo'llari va vositalarini tanlay bilish hamda vaqtini to'g'ri taqsimlay olish malakasi va ko'nikmasini rivojlantirishni nazarda tutadi. Har tomonlama komil shaxsni shakllantirishda uni sistemali tarzda mustaqil faoliyatga boshlash kerakki, bu mustaqil faoliyat o'ziga xos maxsus o'quv topshiriqlari — mustaqil ishlar yordamida muammoli izlanish xarakteridagi faoliyatga aylanishi lozim.

O'quvchilarining darslik bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari quyidagilardan iborat:

- darslik va boshqa o'quv qo'llanmalar vositasida o'r ganilgan mavzu bo'yicha reja va ma'ruza matni tuzish;
- tarqatma materiallar asosida amaliy topshiriqlarni bajarish;
- biologik diktantlar yozish;
- sxema va jadvallar yordamida ma'ruzalar va referatlar tayyorlash;
- o'simliklar ustida kuzatish va tajribalar o'tkazish;
- test topshiriqlarini yechish;
- boshqotirmalar bilan ishslash.
- yangi tushuncha, qoida va atamalami o'zlashtirish va atamalar lug'ati daftariga yozib borish;
- o'qituvchi tavsiya etgan topshiriqning mohiyatini anglash va bajarish;
- darslikda berilgan savollarga javob topish;
- Javoblarini tabiiy obyektlar va ko'rgazmalardan foydalanib asoslash;

## TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

- matn yuzasidan xulosa chiqara olish.

Darslik bilan ishlashda quyidagi uslublardan foydalaniladi: matn bilan ishlash; savol va topshiriqlar bilan ishlash; darslikdagi rasmlar bilan ishlash. Yangi mavzuni tushuntirish va olingen bilimlarni mustahkamlashda ish darslik matni bilan o'tkaziladi. U shu tarzda boradi: mavzu bo'yicha kirish suhbati, o'quvchining mavzu matnnini to'liq yoki qismlari bo'yicha o'qishi, o'qilgan mavzular mazmuni bo'yicha suhbat, o'qituvchining tushuntirishi, yangi atama va nomlarni (o'qituvchining doskaga, o'quvchilarning daftarlariiga) yozishlari. o'qituvchi ishga rahbarlik qila turib, unga barcha o'quvchilarni jalg etadi, ularning javoblarini qiziqarli ma'lumotlar bilan to'ldiradi; jadval, surat, diapozitiv, diafilmlar namoyish qiladi. Shu asosda o'quvchilarda aniq tasavvurlar hosil qilinadi, bu sa'y-harakatlar tushunchani shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Dastlabki darslarda o'qituvchining o'zi o'quvchilar uchun qiyin bo'lgan so'z yoki jumlalarni tanlaydi va ularning ahamiyatini tushuntirishni taklif qiladi. Kelgusi darslarda bu so'zlarni vaqtি-vaqtি bilan takrorlash lozim. O'quvchilar asta-sekin tushunarli bo'limgan so'zlarning ahamiyatini aniqlab, tushuna boshlaydilar. Darsliklardi har bir mavzuga o'quv materiali bilan mustaqil ishslash ko'nikmalarini shakllantiruvchi, o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarini rag'batlantiruvchi va yo'naltiruvchi savollar hamda topshiriqlar berish lozim.

Shunday ekan, uzlusiz ta'lim tizimi uchun yaratilgan darsliklar biri ikkinchisini takrorlamasligi, aksincha mazmunan to'ldirishi, o'quvchi bilimini bosqichma-bosqich yuksaltirishga xizmat qilishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11

2.Azimov I. va boshqalar «Biologiya metodik qo'llanma», «Ibn Sino» 2002y.

3.Rozieva N. O'quvchilarni mustaqil ijodiy tafakkurni shakllantirish. Xalq ta'limi.2003.-3-son. 69 b.